

1-SINF MATEMATIKA FANINING O'QITISHDA INNAVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Andijon viloyati Izboskan tumani

14-umumi o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Xaydarova Tozagul Gafurovna

Abstract: The article examines the recent appearance of computers and information technologies in our lives, the use of computers in mathematics to develop students thinking abilities and computer literacy, innovative approaches to teaching mathematics, teaching mathematics to primary school students.

Keywords: computer, technology, mathematics, innovative education, electronic development, SMART phone.

Bugungi kun o'qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lif mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo'lib, ta'lifning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'otishlari, xurmat-ehtirom tuyg'ularini shakllantirib borishlari talab etiladi.

Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini kengaytirish, ma'naviyaxloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiytarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lif-tarbiya jarayoniga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan birisi, axborotkommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishda mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. [2]

Bundan kelib chiqqan holda ta'lif jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi. O'quvchilarning fanlarga bo'lganqiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, bugungi

pedagogikaning muhim vazifalaridan. Darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko’rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o‘rgatish, o‘qitilayotgan fanni o‘zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda ham turlicha uslublar qo‘llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta’lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, boshlang‘ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars o‘tish tavsiya qilindi.

"Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar" - matematika fani o‘qituvchilarini malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, u matematika fani o‘qituvchilariga ta’limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Fanlarni o‘rganish uchun kerak bo‘ladigan ba’zi mobil ilovalardan namunalarini ko’rib chiqamiz. "Matematik topqirlik" og‘zaki hisob-kitob qobiliyatini o’stirish ilovasi. Ilova tez hisoblash uchun mavjud algoritmlarni aks ettiradi. Har bir o‘quvchi ularni o‘rganishi mumkin, so‘ngra nazariy bilimlarni amaliy mashqlarda mustahkamlashi, shu tariqa og‘zaki hisoblash amaliy tajribalarini boyitishi mumkin. Bu ilovani yaratuvchilari og‘zaki hisobda tarmoqdagи boshqa foydalanuvchilar bilan raqobat qilish imkonini ham hisobga olishgan . Matematika fanini o‘qitishda noan'anaviy ta’lim yondashuvlari - agar biror tizimni yangilashga qaratilgan faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u innovatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Didaktik darslikda foydalaniladigan kompyuter jarayonlarini tizimlashtirishga harakat qilaylik. Multimedia texnologiyalari tufayli talabalarda qiziqish va qiziqish uyg‘otadi. U fikrlash faoliyatini faollashtiradi va o’tilgan materialni samarali

o'zlashtirishga imkon beradi.

Amalda ko'rsatish qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va namoyish qilish imkonini beradi. Materialni o'zlashtirish tezligi bilan bir qatorda uni tushunish, tushunish o'qitishni yakka tartibda olib borish imkonini beradi. Matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida kompyuterdan foydalanishga e'tibor qaratamiz.

O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga ma'lum hajmdagi darslarni beribgina qolmay, balki ularda turli xil vositalar, jumladan, kompyuterdan foydalangan holda mustaqil ravishda boshqa ma'lumotlarni izlash istagini ham shakllantirishi kerak. Adabiyotlar tahlili va metodologiya: O'quvchilarning mustaqil bilim olish qobiliyati qanchalik yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, dars shunchalik samarali va sifatli o'tadi. Kompyuter o'quvchilarning mustaqil ishslash qobiliyatini oshiradi, o'qituvchi esa o'tilgan materialni o'zlashtirish jarayonini turli yo'llar bilan boshqara oladi. "Matematikani o'qitishda innovatsion yondashuvlar" matematika o'qituvchilarining malakasini oshirish kursining o'quv dasturi asosida matematika o'qituvchilarini o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mohiyatini ochib beradi.

Matematika o'qitishda innovatsion yondashuvlar moduli bo'yicha o'quvuslubiy majmua o'quvchiga yangi g'oyalar, me'yorlar, qoidalar, boshqalar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yorlar, qoidalarni tabiiy qabul qilish bilan bog'liq sifatlar, ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beruvchi tarbiyani yaratishga o'rgatadi. innovatsion ta'lim deb ataladi. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb ataladi. Ta'lim innovatsiyasi - ta'lim sohasidagi yoki o'quv jarayonidagi muammoni yangicha yondashuv asosida hal etishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan, avvalgidan ko'ra samaraliroq natijani kafolatlay oladigan shakl, usul va texnologiyadir.

Uning ichida o'yinli va mulohaza qilishga majbur qiladigan masalalar, tezkor, sodda misollarning javoblarini og'zaki aytishadigan bo'lishi kerak. Bu programma ham darsda foydalana olinadiga ham darsdan tashqridera mustaqil foydalanish uchun

yaratiligan bo'lishi kerak. O'yinli qismida labirintdan chiqish o'yinini o'ynash bilan bir qatorda labitintdan chiqish uchun qancha vaqt sarflanganini, nechcha qadam yurganini, umumiy qancha klm yurganini to'g'ri ko'rsatishi shart bo'ladi, to'siqlaridan o'tish uchun misollar beriladi javobini to'g'ri yechsa to'siqlar olinadi. Noto'g'ri javob berilsa to'siqlar olinmaydi misollarni yana qayta yechishga to'g'ri keladi, barcha shartlarini to'g'ri bajarishmasa past ko'rsatkich olishi mumkin bo'ladi. O'yinni o'ynash bilan birga bola aqlini ishlatishga majbur bo'ladi, chunki qadamlarini sanab, vaqtini ham hisoblab, misollarni to'g'ri yechib borishiga to'g'ri keladi. Bu programmaning maqsadi vaqtni, kilometrni hisoblashni o'rganish va darsalardan uzoqlashmagan holda matematik misollarni yechishdan iborat bo'ladi. Bolalar uchun ham madaniy hordiq beruvchi o'yin har darslik vazifasini bajaradi.

REFERENCES

1. Divanova M.S., Alimova S.Q., Alimov O.N. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, 46 bet.
2. Jumayev M.E., Z.G., Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi "Fan va texnlogiya", 2005. 312 bet.